Ko'nikmalarни текширishda leksik, grammatik, talaffuzni o'zlashtirish darajasi, nutq faoliyati turlarida ularning qo'llanish darajasi nazorat qilinadi. Malakalarni tekshirganda esa nutq faoliyati turlaridan muloqot vositasi sifatida foydalanish me'yorlari o'lchanadi. Nazoratning mohiyati (vazifasi, maqsadi, o'rni) aniqlanadi. Nazorat mohiyati ochilib, tekshiriladigan obyekt aniqlangandan so'ng bevosita tekshiruv jarayonini tashkil qilish masalalari ko'ndalang turadi. Nazorat metodikasida usul, tur, shakl, test va baho (reyting) haqidagi tushunchalarni aniqlashtirish muhimdir.

J. Jalolovning ta'kidlashicha, ko'nikmalarни текширish leksika, grammatika, talaffuz hamda nutq namunalarini bilish va nutqda qo'llash bilan bog'liq. Malakalarni tekshirish esa nutq faoliyati turlarini egallash bilan aloqador. Masalan, aktiv leksikanı nazorat qilish usullari.

- berilgan nutq namunalaridan foydalanib, imkon boricha ko'proq gaplar tuzish; bo'sh qolgan joylarni to'ldirish; otlarga monand sifatlarni tanlab, birikmalar tuzish; rasmga oid so'zlarni topish va hokazo. [3-302]

Arthur Hughes (Testing for Language Teachers, 2003) nazorat usullarini test texnikasi deb beradi va quyidagicha tasniflaydi. Test texnikasi talabalarning chet tilidagi malakalari va qobiliyatlarini aniqlashda yordam beradigan vosita. Arthur Hughes misol qilib ko'p tanlovli test (MCQ), to'g'ri-noto'g'ri (True/False), qisqa javob (ushbu nazorat usuli asosan tinglab tushunish va o'qish ko'nikmalarini baholashda qo'llanadi (short answer)), bo'sh qolgan joylarni to'ldirish (gap filling) va boshqa nazorat usullarini taklif etadi.[4-75]

Saidumar Saidaliyevning-Chet tilini o'qitish metodikasidan ocherklar qo'llanmasida-nazorat usuli sifatida turli mashqlardan foydalaniladi deb ta'kidlanadi. Bunday mashqlarni tanlab olish va tavsiflash ta'limning maqsadiga bog'liq. Nazorat usullari nazorat obyektiga mos tushishi, til materialini o'zlashtirishni va nutqiy malakalar rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishi lozim. [5-211]

J.Jalolovning nazorat turlariga bergen misollari boshlang'ich darajadagi o'quvchilarga mos keladi. Bu nazorat turlari bugungi kompetensiyaviy yondashuv davrida oliv ta'lim muassasalari talabalari uchun soddalashgan deb hisoblaymiz. Arthur Hughesning misoldida esa, aksincha, berilgan nazorat turlari bugungi kunda keng qo'llaniladigan misollar bo'lib, ular nutq faoliyati turlarini emas, balki til materialini nazorat qilishga qaratilgan. Bugungi ta'lim jarayonida chet tilini tizim sifatida emas, balki real vaziyatlarga asoslangan holda o'qitilishi maqsad etib olinganligi sababli, bu olimlarning nazorat turlarini an'anaviy nazorat turlariga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Saidumar Saidaliyevning nazorat usuli sifatida mashqlardan foydalanish va ular nutqiy malakani rivojlantirish xususiyatiga ega degan fikrlariga qo'shilamiz, ammo bu mashqlar turlarining tasnifini keltirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Nazorat turlari. Chet tilini o'rgatishda o'quvchilarning nutqiy ko'nikma va malakalarini tekshirish turlari quyidagilardir: doimiy, mavzuiy, davriy va yakuniy nazorat. Doimiy nazorat muallimning har kuni qo'llaydigan xatolarni tuzatishga qaratilgan, amaliyotda keng tarqalgan va samarali nazorat turidir. Mavzuiy nazorat chet tilini o'qitishda mavzu yoki darslik paragrafi o'tib bo'linganda, uni umumlashtirish, takrorlash va mustahkamlash jarayonlaridagi tekshirishni anglatadi. Davriy nazorat esa chorak yoki yarim yilga to'g'ri keladi.

Mazkur nazorat sinfdagi o'quvchilarning umumiyl ulgurish saviyasini namoyish etadi. Yakuniy nazorat o'tkazish o'quv yili oxiriga to'g'ri keladi va ma'lum hujjatga ko'ra o'tkaziladi. [6-305]

M.B.Chelshkova ham nazorat turlari tasnifini to'rtta (doimiy, mavzuiy, davriy va yakuniy) turga ajratgan.[82-432] Unga ko'ra doimiy nazorat og'zaki so'rov, yozma ish va pedagogik testlar yordamida amalga oshiriladi. Doimiy nazorat turi o'qituvchilar uchun talabalarning olgan bilimlari haqidagi ma'lumotni operativ ravishda olishning eng oson va qulay usulidir. Olingan natijalar o'qituvchiga ta'lim jarayonini to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.

Mavzuiy nazorat turi, M.B.Chelshkova fikriga ko'ra, talabalarning dasturdagi mavzularni o'zlashtirish darajasini ko'rsatadi. Ushbu nazorat turi natijalari o'qituvchilarga o'tilgan mavzu bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar olib borish yoxud keyingi mavzuni o'zlashtirishga o'tish xaqidagi ma'lumotni beradi.

Davriy nazorat-dastur bo'yicha talabalarning o'zlashtirgan ko'nikma va malakalarini nazorat qilish usulidir. Yakuniy nazorat imtihon tarzida bo'lib, unga ko'ra talabaning davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablarni o'zlashtirganlik darajasi nazorat qilinadi. Ushbu nazorat turida asosan test usuli qo'llaniladi.[82-432]

J.Xasanboyevning-Pedagogika asarida esa nazoratning uchta turi berilgan, ular; joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat. Bulardan tashqari so'nggi nazorat turi ham belgilangan. [79-456]

Pedagog olimlar I.Tursunov va U.Nishonaliyevning ma'lumotlariga qaraganda testlar orqali quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- a) ta'lim oluvchilar nazariy va amaliy bilimlarining darajasini obyektiv sharoitda aniqlash;
- b) bir vaqtning o'zida bir guruh yoki ko'p sonli ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish;
- d) hamma ta'lim oluvchilar uchun bir xil sharoit yaratish;
- e) test natijalarini tezkorlik bilan (operativ) tekshirish;
- f) turli guruhdagi ta'lim oluvchilar bilimini solishtirish;
- g) ta'lim jarayonida uchraydigan kamchiliklarni aniqlash va boshqalar. [65-399]

Saidumar Saidaliyevning-Chet tili o'qitish metodikasidan ocherklar qo'llanmasida quyidagi nazorat turlari farqlanadi. Joriy nazorat chet tili ta'limida keng tarqalgan bo'lib, ta'lim samaradorligini ta'minlovchi eng muhim omil hisoblanadi. Bu nazoratga ko'ra o'quvchi har darsda so'rab boriladi. Bu o'qituvchiga o'z usullarining samaradorligini belgilash imkonini beradi. [72-240]

Mavzuiy nazorat chet tili ta'limida dolzarb bo'lib, har bir mavzu yakunida o'tkaziladi. Bu kalendor mavzuiy rejada ko'rsatilgan bo'lib, o'quvchining aniq mavzuni o'zlashtirib olish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Oraliq nazorat ma'lum mavzulardan bir nechta o'tib bo'lingach yoki yarim yillik yakunida o'tkaziladi. Natijada o'quvchilarning mavzu yoki mavzu to'plamlarini o'zlashtirib olish darajalari aniqlanadi.

Yakuniy nazorat o'quv yili tugagandan so'ng o'tkaziladi va o'quvchining yil davomida olgan bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanish darajasi belgilanadi.[5-210] Biz yuqorida olimlarning nazorat turlariga bergan ma'lumotlariga qo'shilamiz. Ayrim joylarda nazorat turlarining nomlanishi farq qilishi mumkin, ammo ularning maqsad va vazifalari bir xil. Bizning fikrimizcha, doimiy, mavzuiy va davriy nazorat turlarida assessmentning noan'anaviy turlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sababi, assessmentning ayni shu turi

talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini emas, balki malakalarini ko'rsatishga imkon yaratadi, ularning chet tilida nimalar qila olishlarini aniqlaydi.

Yakuniy nazoratda esa test usulidan foydalanish mumkin. Chunki bu an'anaviy test usuli I.Tursunov va U.Nishonaliyevning ta'kidlashicha, obyektiv, ko'p sonli ta'lim oluvchilarni nazorat qilish, barchaga bir xil sharoit yaratish, operativ tekshirish kabi xususiyatlarga ega. Ammo egallangan malakani real hayotda tekshirish imkoniga ega bo'limganligi sababli, biz bu nazorat turini yakuniy nazoratda qo'llashni ma'qul deb hisoblaymiz.

Nazorat shakllari. O'quvchilarning chet tilidan olgan ko'nikma va malakalari yolg'iz (individual)/yoppasiga, og'zaki/yozma, bir tilda/ikki tilda tekshiriladi. Tekshirishning ushbu ko'rinishlari metodik manbalarda tavsiya qilingan va hozirgi kunda maktab amaliyotida tatbiq etib kelinmoqda. [3-305]

Thomas Kellaghan va Vincent Greaney (Using assessment to improve the quality of education, UNESCO 2001) nazorat olib borishning turli shakllari mavjud deb e'tirof etishgan. Ularga ko'ra nazorat shakllari og'zaki, tinglab tushunish, yozma, amaliy va kuzatuvchan bo'lishi mumkin. Ushbu nazorat shakllari yakka tartibda, kichik va katta guruhlarda hamda kompyuterlashtirilgan tizimda o'tkazilishi mumkin.[6-19]

Test o'tkazish. NCLRC (Assessing learning; Traditional tests, 2004) hujjatida ham test an'anaviy nazorat usuli sifatida yoritiladi. Unga binoan test talabalarning o'qish va tinglab tushunish ko'nikmalarini va til birliklari bo'l mish grammatik va leksik birliklarini nazorat qilishda qo'llanadi.[7-5]

Andrew Harrison [8] va Arthur Hughes [4] qo'llanish maqsadi va vazifalariga ko'ra testlarni to'rt turga ajratgan. Christine Coombe, Keith Folse, Nancy Hubley [9; 202-b.] esa o'z asarida testlarni qo'llanish maqsadi va vazifalariga ko'ra oltita turga ajratishgan.

Biz ham shu olimlarning fikriga qo'shilamiz va testlarni an'anaviy nazorat usuli sifatida ko'ramiz. Sababi, rivojlanish tarixining birinchi va ikkinchi davrlarida chet tilida bilim va ko'nikmalar baholangan va ular test vositasida amalga oshirilgan. Shu sababli aksariyat adabiyotlarda nazorat turi sifatida test atamasi qo'llanib kelinmoqda. Ammo yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib ta'kidlashimiz lozimki, bugungi kunda kommunikativ metodikaning maqsadi tildagi kompetensiyalarni rivojlantirish bo'lsa, bu maqsadga test orqali erishib bo'lmaydi. Shuning uchun biz ishimizda assessment terminini qo'llashni ma'qul topdik, chunki assessment an'anaviy va noan'anaviy nazorat turlarini o'z ichiga oladi.

B.H.Raximov va boshqalarning "Pedagogik texnologiyalar" nomli asarida testlarni qo'llash maqsadi va vazifalariga ko'ra uch turga ajratadi:

1. Intellektual rivojlanish darajasini aniqlovchi;
2. Pedagogik.

3. muayyan kasbga yaroqlilikni aniqlovchi testlar. Maqsaddan kelib chiqib vazifalar (funksiya) belgilanadi. [10-78]

J.Xasanboyevning-Pedagogika ilmiy asarida nazoratning quyidagi funksiyalari sanab o'tilgan; [11-398]

Nazoratning diagnostik funksiyasi. Nazorat natijasi orqali bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darjasini aniqlanadi. Nazoratning ta'lim oluvchilardagi bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish funksiyasi. Ta'lim funksiyasi, nazoratning tarbiyaviy funksiyasi, nazoratning baholash funksiyasi va nazoratning ta'lim oluvchilarda bilimga qiziqishni uyg'otish, jonli fikrashga o'rgatuvchilik funksiyasi.[11-398] Saidumar

Saidaliyevning-Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar qo'llanmasida quyidagi nazorat funksiyalari farqlanadi. [5-208]

Nazoratning aniqlash funksiyasi – unga talabalarining yangi material, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga ko'ra kuchli, o'rtacha va kuchsiz o'quvchilarga ajratish, shu asosida ishslash uslubini guruhga moslash vazifasi kiradi.

Ogohlantiruvchi nazorat o'qituvchiga qanday materialga alohida e'tibor berish kerakligini, talabalarining nazorat uchun tayyorlik darajasini, materiallarni bilish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Intiltiruvchi nazorat-nazorat ishlarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq va o'tilgan materialni o'zlashtirib olganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bunday nazorat xususiy xarakterga ega.

Umumlashtiruvchi nazorat ma'lum mavzu, chorak, yarim yillik va yillik materiallarni qamrab oladi va kompleks xarakterga ega bo'ladi. [5-208]

J.O.Tolipova-Pedagogik kvalimetriya asarida test topshiriqlarini didaktik material sirasiga kiritib, quyidagi funksiyalarni ajratadi. [12-21]

Test topshiriqlarining ta'limiyl funksiyasi – test topshiriqlari talabalarining o'zlashtirigan bilim, ko'nikma va malakalaridagi asosiy kamchiliklarni aniqlash bilan birga, ularni o'z bilimlarini kengaytirish maqsadida fan asoslarini muntazam va tizimli o'rganishga undaydi.

Test topshiriqlarining tarbiyaviy funksiyasi – test topshiriqlari talabalar tomonidan to'g'ri javobni topish jarayonida muayyan bilish qiyinchiliklarini his qilish, muammoni hal etish maqsadida aqliy operatsiyalarni (tahlil, sintez, qiyoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish) bajarish orqali ularning shaxs sifatida rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Test topshiriqlarining rivojlantiruvchi funksiyasi – test topshiriqlari talabalarining egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va rivojlantirishga yordam beradi. Testlar natijasida talaba o'zining natijalarda qanday ulushga ega ekanligini anglab, kelgusi faoliyatdagi mas'uliyatni his etadi va shu asosda o'z-o'zini rivojlantiradi undaydi. [12-21]

Yuqorida keltirilgan nazorat jarayonida qo'llanadigan baholash texnologiyasi to'g'ri, sifatli, samarali va aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi uchun nazoratning vazifalari aniq belgilanishi lozim. Nazorat vazifalari quyidagilardan iborat:

Ta'limiyl vazifa. Oldin o'rganilgan til materiali (ko'nikmalar) va shakllangan malakalarni takrorlash, mustahkamlash va rivojlantirish uchun tekshirish mashqlari va topshiriqlari bajariladi. Ularning barchasi ta'limiyl ruhdagi o'quv tadbirleri tizimini tashkil qiladi. Nazorat chog'ida ham ta'lim beriladi.

Diagnostik (oldini olish) vazifa. Til o'rganish natijasi yaxshi yoki yomonligi o'z vaqtida tahlil qilinadi va vaziyatga qarab navbatdagi ishlar rejalashtiriladi.

Darsdagi vazifa va mashqlar tartibiga tuzatishlar kiritiladi. Kamchiliklar sababi aniqlanadi. Muallimning pedagogik faoliyatini shart-sharoitga moslab bajarishiga diagnostik nazorat yordam beradi.

Tuzatish vazifasini o'tovchi tekshiruv. Diagnostik nazorat bilan tuzatish birgalikda muttasil o'tkaziladi. Bu tekshiruvda aniqlanadigan o'zlashtirish darajasiga asosan nuqsonlarni to'g'rilash ijobiy natija bergen yoki bermaganligini o'qituvchi nazorat qiladi. O'qitish usullaridan tashqari, tekshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlar ham o'zgartirib boriladi.

Boshqaruv vazifasi. Behuda vaqt va kuch sarflamaslik uchun ta'lim jarayonini boshqarishni ta'minlashga qaratilgan tadbir bo'lib, eng samarali o'qitish usullarini topishga, til materialini va nutq malakalarini egallashda bu usullarni qo'llashga urinib ko'rildi.

Baholash vazifasi. O'quvchining faoliyatini doimo baholab turish. O'quvchining belgilangan topshiriqni o'z vaqtida bajarib ulgurishi muallim ishining ham mezonidir. Baholash qo'yiliши о'quvchini rag'batlantirish bilan birga, uning bilimini darajalash imkonini beradi.

Ko'nikma va malaka ko'rsatkichlari baholar bilan o'lchanadi. O'quvchi faoliyatini ikki tomonlama baholash joriy qilingan: 1) mashg'ulotda faol yoki sust ishtirok etishi; 2) qilgan xizmati natijasi, ya'ni egallagan ko'nikma va malakaning sifati baholanadi. Ikkala yondashuv ham o'quvchi tirishqoqligini oshirishga rag'batlantiruvchi omil sanaladi.

Tekshiruvdan kutiladigan asosiy maqsad salbiy natijalarning oldini olishdir. O'quvchilarning ko'nikma va malakasini nazorat qilishdan tashqari, ularning intizomini tergash, o'qishda ichki turtki (motivatsiya)ni hosil qilish va ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishni takomillashtirish singari maqsadlar ham ro'yobga chiqariladi. Talabalarning chet tilini o'zlashtirishdagi yutuqlarini tahlil qilishning yagona yo'li to'g'ri tuzilgan assesmentdir. Ta'lim berish va ta'lim olish sifatini nazorat qiluvchi asosiy element – baholashdir. To'g'ri va sifatli tuzilgan assesment aniq vazifalarni amalga oshirishni maqsad qiladi. Bu vazifalar yod olish emas, balki malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish va real hayotda qo'llashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, to'g'ri tuzilgan assesment talabalarga o'z-o'zini nazorat qilish, amaliy shug'ullanish, qayta shug'ullanish va fidbek olish imkoniyatlarini yaratadi. Bir so'z bilan aytganda, to'g'ri tuzilgan assesment izchil ta'lim tajribasining ajralmas qismi hisoblanadi. Demak, baholashning maqsadi va turlari kursning maqsad va vazifalari bilan chambarchas bog'liq bo'lishi va o'quv yilining boshidanoq aniq belgilanishi zarur.

Ammo pedagoglar kursning mazmuni qanday va talabaga nimalarni o'rgatish kerak, o'qitishning qaysi metod va usullaridan foydalanish lozim degan savollarga katta e'tibor qaratishadi va talabalarning o'zlashtirishini qanday baholash kerak kabi savollarga uncha ahamiyat bermaydilar. Aynan shu holatlar nazorat jarayonida muammolarni keltirib chiqaradi. Bu esa o'z o'rnida o'qituvchining chet tilini baholash kompetensiyasi darajasini belgilab beradi.

Bizga ma'lumki, chet tili o'qituvchilari dars jarayonida ikki vazifani amalga oshirishlari lozim; ta'lim berish va nazorat qilish. Fan o'qituvchilari talaba testni yoki imtihonni topshira olishi, kurs mazmuni va dars berish jarayonining samarali kechishi haqida o'z mulohazalarini bildirishadi. Demak, shu kabi elementlar o'qituvchining fikriga bog'liq.[13] O'qituvchi assesmentning samarali, kurs kontentiga bog'langan, foydali va autentikligini bilishda besh tamoyilga yuzlanadi. Mazkur tamoyillar assesment turining o'rinnligini baholashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Bular samaradorlik (Practicality), ishonchlilik (Reliability), yaroqlilik (Validity), qayta aloqa (Washback) va autentiklik (Authenticity). Samaradorlik assesment o'tkazishdan oldingi jarayon bilan bog'liq. Bu tamoyil assesment instrumentini tuzishda ketadigan mablag', ajratilgan vaqt va baholash jarayonini o'z ichiga oladi. [14-26]

"Yaxshi assesmentning xususiyati-samaradorligidir". U o'qituvchi tomonidan do'stona tuzilgan bo'lishi lozim, o'qituvchi ma'lum vaqt oralig'ida hammaga tushunarli resurslarni ishlatgan holda assesment tuzishga, kuzatishga va baholashga qodir bo'lishi kerak.[9-202]

Tamoyillarning birinchisi samarador, aniq va tushunarli bo'lishi uchun bir qancha misollar keltiramiz. O'qituvchi assesment tuzish jarayonida quyidagi omillarga ahamiyat berishi shart:

- 1) assesment tashkillashtirishda sarflanadigan mablag';
- 2) assesment tuzishga va tekshirishga ketadigan vaqt;
- 3) assesment jarayonini kuzatish;
- 4) assesment natijalarini baholashda ishlatiladigan vositalar. [14-26]

Yuqorida keltirilgan omillar inobatga olinsa, assesment samarali bo'ladi, aks holda samarasiz deb tan olinadi. Misol uchun talabalarning gapirish malakasini baholash maqsadida o'tkaziladigan assesment jarayonida har bir talaba bilan yuzma-yuz suhbat o'tkaziladi. Ammo guruhda 30 nafar talaba mavjud. O'qituvchi bir talaba bilan suhbat o'tkazguncha qolgan 29 talaba bekor o'tiradi. Demak, bunday assesment samarasiz bo'lib, unga ajratilgan vaqt samarali taqsimlanmagan.

Tamoyillarning ikkinchisi-ishonchlilik (reliability). Bu tamoyil assesmentning ishonchli va izchil bo'lishini taqozo etadi. [15-19]

Arthur Hugghesning fikriga ko'ra, assesmentning ishonchsizligi uning aniq bo'lmasligiga olib keladi. Uning ta'kidlashicha, assesment turi natijaning doimiyligini ta'minlab bersa, ishonchli bo'ladi, ya'ni talaba bir assesmentni turli vaqt oralig'ida, turli sharoitda topshirsa-da, natijasi o'zgarmasa bunday assesment ishonchlidir.[4] Arthur Hugges testning ishonchsiz bo'lishiga ikkita sabab ko'rsatadi.

Birinchi sabab – testning xususiyatlari va baholash usullari. Testda noaniq ko'rsatmalar, ikkilantiruvchi savollar va javoblarning o'xshashligi kabi muammolar mavjud bo'lishi mumkin.

Ikkinci sabab – testlarning turli baholanishi. Shunday qilib, bir testni talaba turli sharoitlarda yoki turli vaqt oralig'ida bajarganda natijalar bir xil bo'lsa, bu testning ishonchlilikini ko'rsatadi. Brown ishonchlilik tamoyilining xususiyatlarini quyidagicha tavsiflaydi:

- 1) ishochli test turli sharoitda izchilligini yo'qotmaydi;
- 2) baholashda aniq yo'llanmalar beradi;
- 3) aniq mezonlarga ega;
- 4) aniq vazifalarga ega.[14-27]

Assesmentning ishonchlilikini oshirish uchun aynan subyektiv baholash jarayonining mezonlarini aniq va tushunarli tarzda yozish maqsadga muvofiq. Shu bilan bir qatorda o'qituvchilarning to'g'ri baholash kompetensiyasini oshirish maqsadida treyninglar o'tkazilishi lozim.[16-11] Assesmentning ishonchlilikini yanada chuqurroq anglash maqsadida uning ishonchsizligi sabab bo'luvchi omillarni ko'rib chiqish kerak. Bular quyidagilar; talaba omili, baholash omili, ma'muriyat omili va test omili. Demak, nazoratning ishonchsiz bo'lishiga sabab bo'ladigan birinchi omil -talaba omili.

Test jarayoni va natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan talabaga bog'liq bo'lgan omillar - kasallik, imtihon hayajoni, kunning yomon o'tishi va boshqa jismoniy va ruhiy holatlardir. Shu bilan birga test oluvchining baholash kompetensiyasiga bog'liq. Sanab o'tilgan omillar test natijasiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Ikkinci omil - baholovchining ishonchliligi. Insonning xatosi, noto'g'ri baholash test natijasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunga sabab baholovchining savodsizligi, baholash mezonining kamchiliklari, e'tiborsizlik va tajribasizlikdir. [14-28]

Uchinchi omil - ma'muriyat ishonchliligi. Test natijalarining ishonchsiz bo'lishiga yana bir sabab test jarayonining noto'g'ri tashkil qilinishidir. Test o'tkazish jarayoni muammosiz kechishida ma'muriyatning har bir daqiqani to'g'ri rejalashtirishining ahamiyati juda muhim.

Misol uchun tinglab tushunish imtihoni davomida audioni tinglash jarayonida tashqaridagi shovqin talabalarga diqqatini jamlash imkonini bermaydi. Bu esa test natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.[14-28]

To'rtinchchi omil - test ishonchliligi. Ba'zida testning o'zi bir qancha salbiy oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. To'rt tanlovli test turida javoblar diqqat bilan tuzilishi kerak. Ular birdek qiyinchilikka va uzunlikka ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, soni, tuzilishi, ma'nosi, vaqt taqsimoti aniq va to'g'ri tuzilishi kerak. Testda ikki to'g'ri javob bo'lishi yoki o'tilmagan materialdan savollar tuzilishi umuman mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Bunday holat testning ishonchsiz natija berishiga olib keladi. [14-29]

Yaroqlilik - Brown va Abeywickrama tasnifiga ko'ra, test oldiga maqsad qilib qo'ygan malaka, ko'nikmani baholashga qaratilgan bo'lsa, yaroqli hisoblanadi. Samuel Messick fikricha yaroqlilik - baholashning aniqligi, mosligini dalillar va nazariy asoslar yordamida integral baxolashdir.[17-11] Demak, testning yaroqliligini test topshiruvchining chet tilidagi qobiliyati haqidagi ma'lumotda ko'rishimiz mumkin.

Autentiklik - testda qo'llangan vazifalarning real hayotda tilni qo'llashdagi sharoitga mutanosibligi demakdir.[18-23] Testdagi vazifalar va topshiriqlarda ishlatilgan vaziyatlar real hayotdagi vaziyatlarga imkon qadar yaqin bo'lishi kerak.

Test elementlari kontekstual bo'lishi lozim. Test uchun tanlangan mavzu ma'noli, o'rinni va qiziqarli bo'lishi shart. Real hayotdagi vaziyatlarni test vazifalariga kiritish va testning mazmuniga singdirish zarur. Bu talabalar chet tillarni ajratilgan bir mexanizm sifatida emas, balki kontekstda tanish sharoitlarda o'rganishlariga yordam beradi. Bunday yondashuv talabalarni kelajakda real hayotda chet tilini ishonch bilan qo'llashlariga katta hissa qo'shadi va ularning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Исмоилов А.А. Чет тилида рейтинг тизими асослари, тест таркиби ва турлари. – Т.;1997. – 3-б, 13 б.
2. Матякубова З.Н. Ўқувчилар билимини баҳолашда қўп танлов жавобли тест топшириқларидан фойдаланиш методи (умумий биология мисолида): Дисс. ... пед. фан. ном. –Т.; 2000. –14-б, 132 б.
3. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Т.: 2012. – 427 б.
4. Arthur H. Testing for language teachers. – Cambridge University Press; Second edition, 2003. – Р.75-82.
5. Сайдумар Сайдалиев. Чет тил ўқитиш методикасидан очерклар. – Наманган, 2004. – 211-240 б.
6. Thomas K., and Vincent G.Using assessment to improve quality of education. – Paris, 2001 (UNESCO; International Institute for Educational Planning). – 19 p.
7. National Capital Language Resource Center (NCLRC). Assessing learning; Traditional tests. In The essentials of language teaching, 2004. P-1-5.
8. Harrison A.A. Language testing handbook. Macmillan Press. 1993–Р-145.
9. Christine Coombe, Keith Folse, Nancy Hubley. A practical guide to assessing English language learners. UniversityofMichigan, 2007. – 202 p.
10. Рахимов Б.А., Мавлянов А., Чориев В.К., Абдалов С.Р., Темирова Н.С. Педагогик технологиялар схемаларда. –Т.; –Fan va texnologiya||, 2009. Б.78.

11. Хасанбоев Ж ва бошқалар. Педагогика (педагогика назарияси ва тарихи). Олий ўқув юртлари учун дарслик. Ў.Р. Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги. –Тошкент; –Ношир, 2011. –456 б.
12. Толипова Ж.О. Педагогик квалиметрия. –Тошкент 2017. –21 б.
13. Harding L., & Kremmel, B. Teacher assessment literacy and professional development.
14. Brown Ch. Principles of language Assessment. –2002. P-26-27.
15. Brown H.D. Principles of language learning and teaching. 1994. –228 p.
16. Linville H. Developing a content assessment instrument; Testing implications. Final project report. 2011, Unit 2, p.11.
17. Samuel M. Educational measurement. Macmillan, 1989. – P.11.
18. Ахмедова М.Х. Типология упражнений для развития речи на неродном языке // Молодой учёный, Международный научный журнал. – Казань, 2016. – №1(105). – С.776. 687-689.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**N<sup>o</sup> 11 (4) - 2024**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**" электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масьулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).